

**Ta'lim xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi  
«Номер\_договра» - sonli SHARTNOMA**

**ДОГОВОР № «Номер\_договра»  
о предоставлении образовательных услуг**

Toshkent shahri «01» iyun 2023 y. г. Ташкент от «01» июня 2023г.

“Tashkent International University of Education” Mas’ulyati cheklangan jamiyati, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq tashkil etilgan, Toshkent shahri, Yashnabod tumani, Tuzel-2 manzilida ro‘yxatga olingan, Ustav asosida faoliyat yurituvchi bosh direktor-ректор **Xodjaev Nosir Nodirovich**, keyingi matnda “Universitet” deb yuritiladigan, va

Общество с ограниченной ответственностью «Tashkent International University of Education», созданное в соответствии с законодательством Республики Узбекистан, зарегистрированное по адресу: г.Ташкент, Яшнабадский район, массив Тузель-2, в лице Генерального директора - ректора **Ходжаева Носира Нодировича**, действующего на основании Устава, именуемый в дальнейшем «Университет», и Гражданин Республики Узбекистан

O‘zbekiston Respublikasi fuqarosi

«**ФИО**»  
(Talabani F.I.O.)

keyingi o‘rinlarda “Talaba” deb yuritiladigan, ikkinchi tomondan, hamda

«**ФИО**»  
(Ф.И.О. студента)

именуемый в дальнейшем «Студент», с другой стороны, а также

(To'lovchi jismoniy shaxs bo'lsa to'liq nomi yoki to'lovchi yuridik shaxs bo'lsa korxon, muassasani nomi) nomidan Ustav asosida faoliyat yurituvchi

keyingi o‘rinlarda “To‘lovchi” deb yuritiladigan, uchinchi tomondan, bundan keyin birgalikda “Taraflar” va yakka tartibda “Taraf” deb yuritiladigan, mazkur ta'lim xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnomani quyidagi mazmunda tuzdilar:

(Ф.И.О., если плательщиком является физическое лицо или наименование предприятия, учреждения в случае, если плательщиком является юридическое лицо),

именуемое в дальнейшем «Плательщик», с третьей стороны, вместе именуемые «Стороны», а по отдельности «Сторона»,

заключили настоящий Договор об оказании образовательных услуг о нижеследующем:

### I. SHARTNOMANING MAZMUNI

1.1. Universitet ushbu shartnoma shartlariga muvofiq Talabaga oliy ma'lumot olish uchun ta'lim xizmatlarini ko'rsatadi, To'lovchi va/yoki Talaba esa ushbu shartnomaga muvofiq ko'rsatilgan ta'lim xizmatlar haqini to'laydi.

1.2. Ushbu shartnoma Universitetda 2023-2024-o'quv yili uchun Talabani ilovada ko'rsatilgan ta'lim yo'nalishida standart ta'lim dasturidan o'tishini anglatadi.

1.3. Talaba Universitetning “Kirish imtihonlarini tashkil qilish tartib-qoidalari”ga muvofiq qabul qilinadi.

### I. СОДЕРЖАНИЕ ДОГОВОРА

1.1. Университет обязуется предоставить Студенту образовательные услуги по получению высшего образования в соответствии с условиями настоящего Договора, а Плательщик и/или Студент обязуется оплатить образовательные услуги, оказываемые в соответствии с настоящим Договором.

1.2. Настоящий Договор подтверждает, что Студент пройдет стандартную программу обучения в Университете на 2023-2024 учебный год по выбранному направлению, указанному в приложении.

1.3. Прием абитуриентов осуществляется в соответствии с «Порядком организации вступительных экзаменов» Университета.

## II. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

### 2.1. Universitetning majburiyatlari:

- 2.1.1. Universitetning ichki qoidalarida nazarda tutilgan ta'lim uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;
- 2.1.2. Talabani O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi qonunida nazarda tutilgan huquqlarini erkin amalga oshirishini hamda Universitetning "Talabalar uchun qo'llanma"sida nazarda tutilgan vazifalar bajarilishini ta'minlash;
- 2.1.3. Universitetning "Kirish imtihonlarini tashkil qilish tartib-qoidalari"ga muvofiq eng yaxshi talabalarni aniqlash;
- 2.1.4. Ushbu shartnomaning amal qilish muddati davomida amaldagi o'quv rejasiga muvofiq Talabani mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha ta'lim berishni berishni tashkil etish va ta'minlash;
- 2.1.5. Talabani o'quv faoliyati bilan bog'liq bo'lgan Universitetning ichki qoidalari bilan tanishtirish;
- 2.1.6. Universitetning akademik kalendar hamda uning ichki qoidalariga muvofiq, har semestr yakunida Talabaga akademik ko'rsatkich natijalarini taqdim etish;
- 2.1.7. Ushbu shartnomada nazarda tutilgan ta'lim uchun to'lovni qabul qilish.

### 2.2. Universitetning huquqlari:

- 2.2.1. Talaba va To'lovchi tomonidan ushbu shartnoma majburiyatlari bajarilishi ustidan muntazam ravishda monitoring olib borish;
- 2.2.2. O'quv jarayonini mustaqil ravishda amalga oshirish hamda baholash tizimi, Talabani oraliq nazoratdan o'tkazish tartibi va muddatlarini belgilash;
- 2.2.3. Tasdiqlangan dars jadvaliga akademik soatlar sonini kamaytirmagan holda o'zgartirishlar kiritish;
- 2.2.4. Talaba va To'lovchidan ushbu shartnoma shartlariga muvofiq o'z vaqtida to'lovni amalga oshirishini talab qilish;
- 2.2.5. Ta'lim maqsadlari uchun Talabani shaxsiy ma'lumotlaridan foydalanish (uning pasport yoki ID karta seriya raqamidan, PNFL va boshqa ma'lumotlaridan).
- 2.2.6. Universitet hududida videokuzatuvni joriy etish va ushbu videokuzatuvdan Universitet tomonidan xavfsizlik va o'quv jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish maqsadida foydalanish. Bundan tashqari,

## II. ПРАВА И ОБЯЗАННОСТИ СТОРОН

### 2.1. Обязанности Университета:

- 2.1.1. Создание необходимых условий для обучения, предусмотренных в внутренних правилах Университета;
- 2.1.2. Обеспечение равных прав на образование Студента в соответствии с Законом Республики Узбекистан «Об образовании» и выполнение обязанностей, предусмотренных в «Справочнике для студента» Университета;
- 2.1.3. Выявление самых лучших студентов в соответствии с «Порядком организации вступительных экзаменов» Университета;
- 2.1.4. В течение срока действия настоящего Договора организация и обеспечение обучения по специальности Студента в соответствии с действующим учебным планом;
- 2.1.5. Ознакомить Студента с внутренними правилами Университета, касающимися образовательной деятельности;
- 2.1.6. В соответствии с академическим календарем Университета и его внутренними правилами представление результатов академических показателей Студента в конце каждого семестра;
- 2.1.7. Прием оплаты за обучение, предусмотренной настоящим Договором.

### 2.2. Права Университета:

- 2.2.1. Проведение регулярного контроля за выполнением обязательств по настоящему Договору Студентом и Плательщиком;
- 2.2.2. Самостоятельная реализация учебного процесса и системы оценивания, определение порядка и сроков проведения промежуточного контроля Студента;
- 2.2.3. Внесение изменений в утвержденное расписание занятий без сокращения количества академических часов;
- 2.2.4. Требование от Студента и Плательщика своевременной оплаты в соответствии с условиями настоящего договора;
- 2.2.5. Использование персональных данных Студента (его серийный номер паспорта или удостоверения личности, ПНФЛ и другие данные) для учебных целей.
- 2.2.6. Осуществление видеонаблюдения на территории Университета и использование Университетом данного видеонаблюдения в целях безопасности и надлежащего ведения учебного процесса. Кроме того, использование



Universitetning marketing maqsadlarida umumiy foto va video materiallardan foydalanish.

2.2.7. Talaba va/yoki To'lovchi ushbu shartnomadagi ko'rsatilgan muddatlarda to'lovlarni amalga oshirmaganda hamda shartnomada va Universitetning ichki qoidalarida ko'rsatilgan boshqa shartlarni buzish taqdirda, Universitet tomonidan shartnomani bir tomonlama bekor qilish;

2.2.8. Talaba Universitetning ichki qoidalarini hamda ushbu shartnoma shartlarini buzgan taqdirda uning Universitet binosiga kirishini va o'quv resurslaridan foydalanishini cheklash;

2.2.9. Talaba va/yoki To'lovchi tomonidan to'lovlar kechiktirilgan taqdirda Talabani Universitetdan chetlashtirish yoki ta'limdan vaqtincha cheklash hamda o'quv resurslaridan foydalanishni cheklash to'g'risida qaror qabul qilish;

2.2.10. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi, ushbu shartnoma, Universitetning ustavi va boshqa lokal hujjatlariga muvofiq Talabaga rag'batlantirish va intizomiy jazo choralari qo'llash;

2.2.11. Talaba tomonidan o'z majburiyatlarini bajarilishi ustidan doimiy nazoratni amalga oshirish;

2.2.12. Kunduzgi ta'limga ta'sir etuvchi epidemiologik vaziyat yomonlashganda va boshqa holatlar mavjud bo'lgan taqdirda, shuningdek, Davlat organlarining qaroriga muvofiq odamlarning birgalikda bo'lishiga cheklovlar qo'yilganda ta'lim jarayonlarini onlayn format (masofaviy o'qitish)ga o'tkazish.

2.2.13. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida va Universitet boshqa hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarni amalga oshirish.

### 2.3. Talabani majburiyatlari:

2.3.1. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan oliy ta'lim muassasalarining talabalariga qo'yilgan talablar, shuningdek, Universitetning ta'lim jarayoni va faoliyatini tartibga soluvchi buyruq, nizom, tartib, qo'llanma, yo'riqnoma va qoidalariga muvofiq ta'lim olish;

2.3.2. Universitetda qabul qilingan ichki tartib-qoidalar va boshqa hujjatlariga hamda Universitetda

общих фото и видеоматериалов для маркетинговых целей Университета.

2.2.7. Одностороннее расторжение договора Университетом в случае неуплаты Студентом и/или Плательщиком в срок, указанный в настоящем Договоре, и нарушения других условий, указанных в договоре и внутренних правилах Университета;

2.2.8. Ограничение доступа к образовательным ресурсам и в здание Университета в случае нарушения Студентом внутренних правил Университета и условий настоящего Договора;

2.2.9. В случае несвоевременной оплаты Студентом и/или Плательщиком принятие решения об отчислении Студента из Университета либо временном отстранении его от обучения и ограничении использования образовательных ресурсов;

2.2.10. Применение к Студенту мер поощрения и мер дисциплинарного взыскания в соответствии с законодательством Республики Узбекистан, Уставом, настоящим Договором и другими локальными актами Университета;

2.2.11. Проведение постоянного мониторинга по выполнению Студентом своих обязательств.

2.2.12. Перевод обучения в онлайн формат (дистанционное обучение) при ухудшении эпидемиологической обстановки, влияющей на дневное обучение и наличии иных обстоятельств, а также при установлении ограничений совместного пребывания лиц в соответствии с решением органов государственной власти.

2.2.13. Осуществление иных прав, предусмотренных действующим законодательством Республики Узбекистан и другими внутренними документами Университета.

### 2.3. Обязанности Студента:

2.3.1. Получать образование в соответствии с требованиями, предъявляемыми к обучающимся высших учебных заведений, установленными законодательством Республики Узбекистан, а также порядком, положениями, процедурами, пособиями, инструкциями и правилами, регламентирующими образовательный процесс и деятельность Университета;

2.3.2. Соблюдение внутренних правил и иных документов, принятых в Университете, а также



umumiy qabul qilingan axloq me'yorlari va intizomlariga rioya qilish;

2.3.3. Face ID tizimidan foydalangan holda Universitetning darslarda majburiy qatnashish.

2.3.4. Universitet mol-mulkidan belgilangan talablar asosida foydalanish va ehtiyotkorona munosabatda bo'lish hamda unga yetkazilgan zararni belgilangan tartibda qoplash;

2.3.5. Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim yoki professional ta'limni tamomlaganligi to'g'risidagi shahodatnoma, diplom, sertifikat va boshqa talab qilinadigan hujjatlarning asl nusxasini Universitetda ta'lim muddati davomida saqlanishi uchun o'quv yili boshlanishidan 15 (o'n besh) kun oldin taqdim etish;

2.3.6. O'quv yili boshlanishidan 15 (o'n besh) kun oldin to'liq rasmiylashtirilgan ushbu shartnomaning bitta asl nusxasini Universitetga taqdim etish;

2.3.7. To'lovchi bilan birgalikda o'qish uchun ushbu shartnomada belgilangan to'lovlarni ko'rsatilgan muddatlarda va Universitetning bank hisobvarag'iga to'lanishini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'rish;

2.3.8. Akademik kalendar va dars jadvaliga muvofiq dars jarayonlariga qatnashish. Universitet tomonidan belgilangan formani kiyish, ozoda ko'rinishga ega bo'lish;

2.3.9. Universitetni dars jarayonlarda qatnashmasligining uzrli sabablari bilan yozma ravishda xabardor qilish.

2.3.10. Onlayn ta'lim (masofaviy o'qitish)ga o'tishda Universitet tomonidan belgilangan tartibda masofaviy aloqa vositalaridan foydalangan holda doimiy ravishda o'qish.

## **2.4. Talabning huquqlari:**

2.4.1. Universitetning ta'lim jarayoni bilan bog'liq masalalar bo'yicha Universitet ma'muriyatiga murojaat qilish;

2.4.2. Universitetning tegishli tartib qoidalariga muvofiq, Talabada kutilmagan holatlar yuzaga kelganda akademik ta'til olish uchun yozma ravishda Universitetga murojaat qilish;

общепринятых моральных и этических норм в Университете;

2.3.3. Обязательное посещение занятий в Университете с использованием системы Face ID.

2.3.4. Пользование имуществом Университета в соответствии с установленными требованиями, бережное отношение к нему и возмещение за причинения ущерба в установленном порядке;

2.3.5. Не позднее, чем за 15 (пятнадцать) дней до начала учебного года предоставление оригинала аттестатов, дипломов, сертификатов и других необходимых документов, подтверждающих окончание общего среднего, среднего специального или профессионального образования, для хранения в Университете на период обучения;

2.3.6. Предоставить один оригинал полностью заполненного настоящего Договора в Университет за 15 (пятнадцать) дней до начала учебного года;

2.3.7. Принятие всех необходимых мер, чтобы оплата за обучение, указанная в настоящем Договоре с Плательщиком, поступила на расчетный счет Университета в установленные сроки;

2.3.8. Посещать занятия в соответствии с академическим календарем и расписанием занятий. Носить установленную Университетом форму, иметь опрятный внешний вид;

2.3.9. Письменно извещать Университет об уважительных причинах своего отсутствия на занятиях.

2.3.10. При переводе на обучение в онлайн формат обучаться на постоянной основе, используя удаленные средства связи, в установленном Университетом порядке.

## **2.4. Права Студента:**

2.4.1. Обращаться в администрацию Университета по вопросам, связанным с образовательным процессом Университета;

2.4.2. В соответствии с действующими правилами Университета обращаться в Университет в письменной форме с заявлением об академическом отпуске в случае возникновения непредвиденных обстоятельств;

2.4.3. Talaba to'liq ta'limni tugatgunga qadar Universitet talabalar safidan chetlashtirilganda yoki o'z xohishi bilan ta'lim olishni rad etsa bajarilgan ta'lim kreditlari bo'yicha qisman ta'lim dasturini o'zlashtirganligi to'g'risidagi hujjatni olish;

2.4.4. Alohida tuzilgan shartnoma asosida ta'lim dasturiga kiritilmagan qo'shimcha ta'lim xizmatlaridan foydalanish;

2.4.5. Universitet Talabalari uchun tashkil etilgan ijtimoiy-madaniy va boshqa tadbirlarda ishtirok etish.

### **2.5. To'lovchining majburiyatlari:**

2.5.1. Ushbu shartnoma shartlariga va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq ta'lim xizmatlari uchun to'lovlarni o'z vaqtida va to'liq to'lash;

2.5.2. Universitet tomonidan taqdim qilingan elektron hisob-fakturani belgilangan tartibda o'z vaqtida rasmiylashtirish.

### **2.6. To'lovchining huquqlari:**

2.6.1. Talaba tomonidan o'z majburiyatlarini bajarilishi yuzasidan yillik monitoring o'tkazish.

### **2.7. Taraflarning majburiyatlari:**

2.7.1. Universitet o'quv reja bo'yicha Talaba tomonidan o'zlashtirilishi uchun javobgar emas.

2.7.2. Talaba va To'lovchi o'rtasidagi huquqiy majburiyatlari o'zaro kelishuv asosida tartibga solinadi va Universitet ushbu kelishuvda hech qanday majburiyatni o'z zimmasiga olmaydi.

2.7.3. To'lovchi ushbu shartnomaning 3.5 bandida belgilangan muddatlarda majburiyatlarini bajarmagan taqdirda Universitetni yozma shaklda xabardor qilishi kerak. Xabar berilmagan taqdirda, Universitet Talabaning murojaatiga ko'ra yangi To'lovchi bilan qo'shimcha kelishuv tuzishga haqli hisoblanadi.

2.7.4. Universitet o'qishni tamomlagan Talabani ishga joylashtirish majburiyatini o'z zimmasiga olmaydi.

## **III. TA'LIM UCHUN TO'LOV TARTIBI VA SHARTLARI**

3.1. Ta'lim xizmatlar uchun to'lovlar O'zbekiston Respublikasi milliy valyutasida-so'mda Universitetning bank hisobvarag'iga o'tkazish yo'li

2.4.3. Получить документ об окончании неполной образовательной программы за освоенные образовательные кредиты при исключении обучающегося из числа обучающихся Университета или добровольном отказе от получения образования до завершения полного образования;

2.4.4. Пользоваться дополнительными образовательными услугами, не входящими в образовательную программу, на основании отдельно заключенного Договора.

2.4.5. Принимать участие в социально-культурных и других мероприятиях, организованных для студентов Университета.

### **2.5. Обязанности Плательщика:**

2.5.1. Своевременная и полная оплата стоимости образовательных услуг в соответствии с условиями настоящего Договора и действующим законодательством Республики Узбекистан;

2.5.2. Своевременное оформление электронной счета-фактуры, предоставленной Университетом, в установленном порядке.

### **2.6. Права Плательщика:**

2.6.1. Проведение ежегодного мониторинга за выполнением студентом своих обязательств.

### **2.7. Обязанности Сторон:**

2.7.1. Университет не несет ответственности за усвоение Студентом учебной программы.

2.7.2. Юридические обязательства между Студентом и Плательщиком регулируются взаимным соглашением, и Университет не принимает на себя никаких обязательств по данному соглашению.

2.7.3. В случае неисполнения обязательств в сроки, указанные в пункте 3.5 настоящего Договора, Плательщик должен письменно уведомить об этом Университет. В случае неуведомления Университет вправе заключить дополнительное соглашение с новым Плательщиком по заявлению Студента.

2.7.4. Университет не берет обязательств по трудоустройству Студента по окончании срока его обучения в Университете.

## **III. ПОРЯДОК И УСЛОВИЯ ОПЛАТЫ ОБУЧЕНИЯ**

3.1. Оплата образовательных услуг производится в национальной валюте Республики Узбекистан – сум, путем

bilan va/yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan ruxsat etilgan boshqa usullarda amalga oshiriladi.

3.2. **Bir o'quv yil uchun** ta'lim xizmatlari to'lov miqdori **25 000 000,00 (yigirma besh million) so'm**, shunga ko'ra **bir semestr uchun** ta'lim to'lovi **12 500 000,00 (o'n ikki million besh yuz ming) so'm** ni tashkil qiladi.

3.3. Universitet ta'lim xizmatlar (ta'lim) uchun to'lov miqdorini keyingi o'quv yillarida bir tomonlama o'zgartirishga haqli.

3.4. Talabaning ta'limda o'zlashtirish natijalari qoniqarsiz bo'lganligi sababli, bir yoki bir nechta fanlarni qayta o'zlashtirish yoki qayta ichki imtihonlarni topshirish holatida tanlangan fan bo'yicha belgilangan to'lov miqdori Universitet tomonidan tasdiqlangan ichki tartib asosida to'lanadi.

3.5. To'lovchi va/yoki Talaba ushbu shartnomaning 3.2 bandida bir o'quv yili uchun ko'rsatilgan to'lov miqdorini quyidagi tartibda Universitetning bank hisobvarag'iga o'tkazish yo'li bilan to'lashi shart:

3.5.1. **Shartnoma summasining 25% miqdoridagi dastlabki to'lov Shartnoma rasmiylashtirgan kundan keyin 15 kun ichida, lekin 2023-yil 10-sentabrdan kechiktirmay to'lanadi. Ushbu bo'nak to'lovi Universitetning kvotasi doirasida Talabaning berilgan joyini saqlab qolinishini kafolatlaydi;**

3.5.2. **ikkinchi 25% miqdoridagi to'lov 2023 yilning 15 noyabrga qadar amalga oshiriladi;**

3.5.3. **uchinchi 25% miqdoridagi to'lov 2024 yilning 15 yanvarga qadar amalga oshiriladi;**

3.5.4. **oxirgi 25% miqdoridagi to'lov 2024 yilning 1 martiga qadar amalga oshiriladi.**

3.6. Talaba va/yoki To'lovchining xohishiga binoan ta'lim xizmatlari uchun bir o'quv yillik to'lov muddatidan oldin amalga oshirilishi mumkin.

3.7. Ba'zi hollarda, Universitet Talaba va/yoki To'lovchining yozma murojaati ko'ra ta'lim uchun to'lov muddatlari va tartibini kelishish huquqini o'zida saqlab qoladi.

3.8. Talaba va/yoki To'lovchi tomonidan ushbu shartnoma bo'yicha ortiqcha to'langan to'lov keyin o'quv yiliga o'tkazishga ruxsat etiladi.

перечисления на расчетный счет Университета и/или иными способами, разрешенными законодательством Республики Узбекистан.

3.2. Размер оплаты образовательных услуг за **один учебный год** составляет **25 000 000,00 (двадцать пять миллионов) сум**, соответственно стоимость обучения за **один семестр** составляет **12 500 000,00 (двенадцать миллионов) сум**.

3.3. Университет вправе в одностороннем порядке изменять размер оплаты образовательных услуг (обучения) в последующие учебные годы.

3.4. В связи с неудовлетворительными результатами обучения Студента, в случае повторного изучения одного или нескольких предметов или повторной сдачи внутренних экзаменов, сумма оплаты, установленная по выбранному предмету, выплачивается на основании внутреннего порядка, утвержденного Университетом.

3.5. Плательщик и/или Студент обязан оплатить сумму платежа, указанную в пункте 3.2 настоящего Договора, за один учебный год путем ее перечисления на расчетный счет Университета в следующем порядке:

3.5.1. **Первоначальный взнос в размере 25% от суммы договора вносится в течение 15 дней после даты заключения договора, но не позднее 10 сентября 2023 года. Этот взнос гарантирует бронирование места Студента в пределах квоты Университета;**

3.5.2. **второй платеж в размере 25% осуществляется до 15 ноября 2023 года;**

3.5.3. **третий платеж в размере 25% осуществляется до 15 января 2024 года;**

3.5.4. **окончательный платеж в размере 25% осуществляется до 1 марта 2024 года.**

3.6. По желанию Студента и/или Плательщика оплата образовательных услуг за один учебный год может производиться досрочно за один полный год обучения.

3.7. В отдельных случаях Университет оставляет за собой право согласования условий и порядка оплаты обучения по письменному заявлению Студента и/или Плательщика.

3.8. Суммы, излишне уплаченные Студентом и/или Плательщиком по настоящему договору, могут быть перенесены на следующий учебный год.



- 3.9. Ushbu shartnomaning 3.5.1 kichik bandida belgilangan to'lov amalga oshirilgandan so'ng Universitetning tegishli buyrug'i bilan Talaba talabalar safiga (keyingi kursga) qabul qilinadi.
- 3.10. Barcha bank to'lovlari bilan bog'liq bo'lgan bank xarajatlari To'lovchi va/yoki Talaba tomonidan to'lanadi.
- 3.11. To'lovni amalga oshirayotganda To'lovchi va/yoki Talaba to'lov hujjatlarida Talabaning ismi sharifini, pasport seriyasi yoki shaxs guvohnomasi raqamini hamda shartnoma raqami va sanasini ko'rsatishi shart.
- 3.12. Talaba Universitetning tegishli buyrug'i bilan talabalar safiga qabul qilingandan (keyingi kursga o'tkazilgandan) so'ng ta'lim uchun amalga oshirilgan to'lovlar qaytarib berilmaydi.
- 3.13. Ushbu shartnoma bekor qilinganda yoki Talaba chetlashtirilganda Universitet bilan kelishilgan holda, faqat o'qish boshlanmagan semestr uchun quyidagi hollarda to'lov summasi qaytarilishi mumkin:
- sog'lig'iga ko'ra (tibbiy ma'lumotnomasiga asosan);
  - sud tomonidan ozodlikdan mahrum qilinganligi munosabati bilan;
  - o'lim bilan bog'liq hollarda.
- 3.14. Talaba akademik ta'til olgan taqdirda Talabaning keyingi semestr uchun to'langan to'lov miqdori qaytarib berilmaydi va Universitet tomonidan Talaba bilan rasmiylashtiriladigan yangi ta'lim xizmatlarini ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma uchun bo'nak sifatida saqlab qolinadi.
- 3.15. Agar biron bir sababga ko'ra To'lovchi belgilangan to'lovlarni amalga oshira olmasa, Talaba mustaqil ravishda to'lovchi bo'ladi.
- 3.16. Ushbu shartnomada Talabaning va/yoki To'lovchining arizasida ko'rsatilgan to'lov jadvalga asosan ta'lim uchun belgilangan to'lovlar to'lanmagan yoki kechiktirilgan taqdirda Universitet tomonidan kechiktirilgan to'lov avtomatik to'lov orqali To'lovchining bank hisobvaragi (plastik kartasi)dan yechib olinadi.
- 3.17. Ushbu shartnoma bo'yicha ko'rsatilgan ta'lim xizmatlar hisob-faktura va bajarilgan ishlar dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.
- 3.18. To'lovchi va/yoki Talabaga hisob-faktura va bajarilgan ishlar dalolatnomasi har bir akademik
- 3.9. После внесения оплаты, указанной в п. 3.5.1 настоящего Договора, Студент зачисляется в ряды обучающихся (на следующий курс) соответствующим приказом Университета.
- 3.10. Банковские сборы, связанные со всеми банковскими платежами, несет Плательщик и/или Студент.
- 3.11. При осуществлении платежа Плательщик и/или Студент в платежных документах должны указать Ф.И.О. Студента, серию паспорта или номер удостоверения личности, а также номер договора и дату.
- 3.12. После зачисления Студента в ряды Студентов (перевода на следующий курс) соответствующим приказом Университета произведенные платежи за обучение не возвращаются.
- 3.13. При расторжении настоящего Договора или отчислении Студента по согласованию с Университетом сумма оплаты может быть возвращена только за семестр, в котором обучение не началось, в следующих случаях:
- по состоянию здоровья (на основании медицинской справки);
  - в связи с лишением свободы судом;
  - в случаях смерти.
- 3.14. В случае ухода Студента в академический отпуск оплата Студенту за очередной семестр не возвращается и удерживается Университетом в качестве залога для заключения нового договора об оказании образовательных услуг со Студентом.
- 3.15. Если Плательщик по каким-либо причинам не может произвести установленные платежи, Студент становится самостоятельным плательщиком.
- 3.16. В случае неуплаты или несвоевременной оплаты стоимости обучения в соответствии с графиком платежей, указанным в заявлении Студента и/или Плательщика по настоящему Договору, со стороны Университета просроченный платеж списывается с банковского счета Плательщика (пластиковой карты) посредством автоматической оплаты.
- 3.17. Образовательные услуги, предоставляемые по настоящему Договору, оформляются счетом-фактурой и актом выполненных работ.
- 3.18. Счет-фактура и акт выполненной работы направляются Плательщику и/или Студенту в

semestr uchun semestr yakunida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibida yuboriladi.

3.19. Ushbu shartnoma bo'yicha Talabaga o'qish davrida Universitet tomonidan stipendiya to'lash ko'zda tutilmagan.

#### IV. SHARTNOMANI BEKOR QILISH VA TALABANI TA'LIM JARAYONIDAN CHETLATISH

4.1. Ushbu shartnoma quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

4.1.1. Taraflarning o'zaro kelishuvi orqali;

4.1.2. ushbu shartnomaning 4.2 bandiga muvofiq talaba chetlashtirilganda;

4.1.3. Taraflardan biri ushbu shartnomada belgilangan shartlarni bajarmagan taqdirda;

4.1.4. ushbu shartnomaning 3.5 bandida ko'rsatilgan muddatlarda to'lovlar amalga oshirilmaganda;

4.1.5. O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

4.2. Talaba quyidagi hollarda Universitetdan chetlatilishi mumkin:

4.2.1. o'z xohishiga ko'ra;

4.2.2. boshqa oliy ta'lim muassasasi (tashkiloti)ga o'tishi munosabati bilan;

4.2.3. ta'limda o'zlashtirish natijalari qoniqarsiz (akademik muvaffaqiyatsiz) bo'lganligi sababli;

4.2.4. bir o'quv semestr davomida akademik soatlarini Universitet ichki hujjatlarida belgilangan miqdorlarida sababsiz o'tkazib yuborilgan mashg'ulotlari uchun;

4.2.5. Universitetning ichki qoidalari va umumiy qabul qilingan axloq me'yorlari va intizomlariga rioya qilmaganligi;

4.2.6. sog'lig'iga ko'ra (tibbiy ma'lumotnomasiga asosan);

4.2.7. soxtalashtirilgan hujjatlarni taqdim etganligi;

4.2.8. sud tomonidan ozodlikdan mahrum qilinganligi munosabati bilan;

4.2.9. o'lim bilan bog'liq hollarda

4.3. Shartnoma bekor qilinganda va/yoki Talaba chetlashtirilganda ta'lim xizmatlari uchun amalga oshirilgan to'lovlar Universitet tomonidan qaytarib berilmaydi, ushbu shartnomaning 3.13-banddan tashqari.

конце каждого академического семестра в порядке, установленном законодательством Республики

3.19. Выплата стипендий студенту в период обучения со стороны Университета по настоящему договору не предусмотрена.

#### IV. РАСТОРЖЕНИЕ ДОГОВОРА И ОТСТРАНЕНИЕ СТУДЕНТА ОТ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОЦЕССА

4.1. Настоящий Договор может быть расторгнут в следующих случаях:

4.1.1. по взаимному согласию Сторон;

4.1.2. при отчислении Студента в соответствии с пунктом 4.2 настоящего Договора;

4.1.3. в случае несоблюдения одной из сторон условий настоящего договора;

4.1.4. при неуплате платежей в сроки, указанные в пункте 3.5 настоящего Договора;

4.1.5. в иных случаях, предусмотренных действующим законодательством Республики Узбекистан.

4.2. Студент может быть отчислен из Университета в следующих случаях:

4.2.1. по собственному желанию;

4.2.2. в связи с переводом в другое высшее учебное заведение (учреждение);

4.2.3. из-за неудовлетворительных результатов обучения (неуспеваемости);

4.2.4. за необоснованно пропущенные академические часы в течение одного академического семестра в размерах, установленных внутренними актами Университета;

4.2.5. Несоблюдение внутренних правил Университета, а также общепринятых моральных и этических норм;

4.2.6. по состоянию здоровья (на основании медицинской справки);

4.2.7. предоставление поддельных документов;

4.2.8. в связи с лишением свободы судом;

4.2.9. в случаях смерти;

4.3. Плата за оказанные образовательные услуги в случае расторжения договора и/или отчисления Студента Университетом не возвращается, за исключением пункта 3.13 настоящего Договора.



## V. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

5.1. Ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajaraganlik va lozim darajada bajaraganlik uchun Taraflar O'zbekiston Respublikasi qonun-hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

5.2. O'qish uchun to'lov o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda Universitet To'lovchidan va/yoki Talabadan kechiktirilgan har bir kun uchun muddati o'tgan to'lov summasing 0,4 foizi miqdorida, lekin 50 foizdan ko'p bo'lmagan miqdorda penya undirishga haqli.

5.3. Jarima to'lash bilan Taraflarni ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

5.4. Talaba tomonidan Universitet bino, jihozlari, texnika vositalari, va h.k. larga moddiy zarar yetkazilgan taqdirda Universitet oldida to'liq javobgar bo'ladi.

5.5. Talaba ushbu shartnoma shartlarini buzgan taqdirda va shartnoma to'lovlaridan qarzdorligi mavjud bo'lsa Universitet hududiga kirishi, o'quv resurslaridan foydalanishi cheklanadi hamda ta'lim xizmatlari ko'rsatilishi, ma'lumot va ma'lumotnomalar berilishi to'xtatiladi.

5.6. Talabani Universitetdan chetlashtirish yoki cheklashda To'lovchi va/yoki Talabani ko'rsatilgan ta'lim xizmatlari uchun to'lov qilish majburiyatlaridan ozod qilmaydi.

5.7. Ushbu shartnomada Taraflarning majburiyatlarini buzganlik holatlari uchun javobgarlik choralari ko'zda tutilmagan bo'lsa O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq tartibga solinadi.

## VI. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

6.1. Taraflar ushbu shartnomadan kelib chiqadigan yoki yuzaga kelishi mumkin bo'lgan barcha nizolar yoki kelishmovchiliklarni do'stona muzokaralar orqali hal qilish uchun barcha say-harakatlarni amalga oshiradilar.

6.2. Ushbu shartnomadan kelib chiqadigan har qanday nizo, kelishmovchilik yoki da'vo yoki unga amal qilmaslik, vaqtincha to'xtatish yoki bekor qilish, do'stona muzokaralar orqali hal etish imkoniyati bo'lmasa O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq suq orqali tartibga solinadi.

## V. ОТВЕТСТВЕННОСТЬ СТОРОН

5.1. Стороны несут ответственность в соответствии с законодательством Республики Узбекистан за неисполнение своих обязательств по настоящему договору и ненадлежащее их исполнение.

5.2. В случае несвоевременной оплаты за обучение Университет имеет право взыскать с Плательщика и/или Студента пеню в размере 0,4 % суммы просроченного платежа за каждый день прострочки, но не более 50% суммы просроченного платежа.

5.3. Оплата штрафа не освобождает Стороны от исполнения обязательств по настоящему Договору.

5.4. Студент несет полную ответственность перед Университетом в случае причинения материального ущерба зданию, оборудованию, помещениям и т.п. Университета.

5.5. В случае нарушения Студентом условий настоящего Договора и наличия задолженности по платежам по договору, ему/ей будет запрещен вход в здание Университета, использование образовательных ресурсов, а также будет прекращено предоставление образовательных услуг, информации и рекомендаций.

5.6. Отчисление или ограничение Студента от Университета не освобождает Плательщика и/или Студента от обязанности оплаты оказанных образовательных услуг.

5.7. Если настоящим Договором не предусмотрены ответственности за нарушения обязательств Сторон, они регулируются в соответствии с законодательством Республики Узбекистан.

## VI. ПОРЯДОК РАЗРЕШЕНИЯ СПОРОВ

6.1. Стороны приложат все усилия для разрешения путем мирных переговоров всех споров или разногласий, вытекающих из настоящего Договора.

6.2. Любой спор, разногласие или претензия, вытекающие из настоящего Договора, либо его несоблюдение, временное приостановление или расторжение, при отсутствии возможности его решения путем мирных переговоров, регулируются в судебном порядке в соответствии с законодательством Республики Узбекистан.

## VII. YENGIB BO‘LMAYDIGAN (FORS-MAJOR) HOLATLAR

7.1. Agar ushbu shartnoma bo‘yicha har qanday majburiyatning bajarilishiga (talabning to‘lov majburiyatidan tashqari) biron bir to‘sqinlik qilinsa, harakat yoki hukumat harakatsizligi, urush (e‘lon qilingan yoki e‘lon qilinmagan), harbiy harakatlar, qarochilik, sanoat nizolari (shu jumladan, ishning sekinlashuvi va qoidalar bo‘yicha ishlash) taraflarning har qanday joyida yoki boshqa joylarda, yong‘in, portlash yoki boshqa sabablarga ko‘ra (yuqoridagi voqealarning har qandayida o‘xshashlikdan qat‘i nazar) Taraf javobgarlikdan ozod qilinadi va bajarilmasligi uchun javobgar bo‘lmaydi (to‘lov majburiyatlaridan tashqari) bu ogohlantirish, to‘siq, cheklash yoki kechikish amal qiladi. Ushbu holatlarning har biri sababli ozod qilishni talab qilmoqchi bo‘lgan taraf, boshqa tarafni ularning kelib chiqishi va tugatilishi to‘g‘risida yozma ravishda darhol xabardor qilishi kerak.

## VIII. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

8.1. Ushbu Shartnoma Taraflar tomonidan imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va 1 (bir) o‘quv yili uchun tuziladi, shu bilan birga, To‘lovchi va/yoki Talaba moliyaviy majburiyatlarini to‘liq bajargunga qadar amal qiladi.

## IX. UMUMIY QOIDALAR

9.1. Talaba va To‘lovchi o‘rtasidagi huquqiy majburiyatlar ikki tomonning alohida o‘zaro kelishuvlari bilan tartibga solinadi, ularni amalga oshirish uchun Universitet hech qanday majburiyatlarni o‘z zimmasiga olmaydi.

9.2. Taraflarning manzili, aloqa raqami va boshqa rekvizitlari o‘zgargan taqdirda Taraflar tomonlarni zudlik bilan yozma ravishda xabardor qilishlari shart bo‘ladi.

9.3. Talaba Universitetga ta‘lim faoliyati hamda ushbu shartnomani tuzish va uning shartlarini bajarish bilan bog‘liq bo‘lgan shaxsiy ma‘lumotlarini to‘plash, tizimlashtirish, yo‘q qilishga amal qilish muddatini cheklamagan holda o‘z roziligini beradi.

## VII. ОБСТОЯТЕЛЬСТВА НЕПРЕОДОЛИМОЙ СИЛЫ (ФОРС-МАЖОР)

7.1. В случае возникновения каких-либо препятствий для выполнения какого-либо обязательства по настоящему Договору (кроме обязательства студента по оплате), действия или бездействия правительства, войны (объявленной или необъявленной), военных действий, пиратства, промышленного конфликта (включая задержка работы и работу в соответствии с правилами) в каком-либо месте или ином месте сторон, вследствие пожара, взрыва или иных причин (независимо от сходства в каком-либо из вышеперечисленных событий) Сторона освобождается от ответственности и не несет ответственности за несоблюдение (кроме платежных обязательств), действует это как предупреждение, препятствие, ограничение или задержка. В каждом из этих случаев сторона, добывающаяся освобождения, должна немедленно уведомить другую сторону в письменной форме об их возникновении и прекращении.

## VIII. СРОК ДЕЙСТВИЯ ДОГОВОРА

8.1. Настоящий Договор вступает в силу со дня его заключения Сторонами, заключается на 1 (один) учебный год и действует до полного исполнения Плательщиком и/или Студентом своих финансовых обязательств.

## IX. ОБЩИЕ ПРАВИЛА

9.1. Юридические обязательства между Студентом и Плательщиком регулируются отдельными взаимными соглашениями двух сторон, Университет не берет на себя никаких обязательств по их выполнению.

9.2. В случае изменения адреса, контактного телефона и иных реквизитов Сторон, Стороны обязаны незамедлительно уведомить об этом в письменной форме.

9.3. Студент даёт свое согласие на сбор, систематизацию, уничтожение своих персональных данных, связанных с заключением и исполнением настоящего договора, в целях осуществления

9.4. Ushbu shartnoma Taraflarning yozma kelishuvi bilan o'zgartirilishi, bekor qilinishi mumkin. Shartnomaga kiritiladigan har qanday o'zgartirish O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yozma kelishuv asosida amalga oshiriladi.

9.5. Ushbu shartnoma o'zbek va rus tillarida, bir xil yuridik kuchga ega har bir tomon uchun bitta nusxadan uchta asl nusxada tuzilgan. Biror bir nomuvofliqlar yuzaga kelgan taqdirda, shartnomaning o'zbek tilidagi talqini ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi.

образовательной деятельности Университета без ограничения срока действия.

9.4. Настоящее Договор может быть изменен или расторгнут по письменному соглашению Сторон. Любые изменения в договор вносятся на основании письменного соглашения в порядке, установленном действующим законодательством Республики Узбекистан.

9.5. Настоящий договор составлен на узбекском и русском языках в трех экземплярах по одному экземпляру для каждой стороны, имеющих одинаковую юридическую силу. В случае расхождений в толковании текст на узбекском языке имеет преимущественную силу.

### X. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI / X. ЮРИДИЧЕСКИЕ АДРЕСА СТОРОН

UNIVERSITET / УНИВЕРСИТЕТ	TO'LOVCHI / ПЛАТЕЛЬЩИК	TALABA / СТУДЕНТ
<p><b>"Tashkent International University of Education" MCHJ</b></p> <p><b>Pochta manzili / Адрес:</b> Toshkent 100000 / Ташкент, 100000 Yashnabod tumani / Яшнабадский р-н Tuzel – 2 / Тузел – 2 Imom Vuxoriy ko'ch / ул.Имама Бухарий</p> <p><b>To'lov rekvizitlari / Платежные реквизиты:</b> <b>h.r. / p.c.:</b> 2021 4000 4052 9006 8001 ATB Universal banking Toshkent f-li / в АКБ Универсал банк Ташкентский ф-л <b>Bank kodi / МФО:</b> 00996 <b>STIR / ИНН:</b> 307 806 311 <b>OKED / ОКЭД:</b> 85420</p>	<p>_____</p> <p>(korxon, tashkilotning nomi / наименование организации)</p> <p><b>Manzil / Адрес:</b></p> <p>To'lov rekvizitlari / Платежные реквизиты: <b>h.r. / p.c.:</b> <b>Bank / Банк:</b> <b>Kod / МФО:</b> <b>STIR / ИНН:</b></p> <p><b>Jismoniy shaxslar uchun / для физических лиц:</b> (To'lovchi jismoniy shaxs bo'lsa to'ldiriladi / Заполняется, если плательщиком является физическое лицо)</p> <p><b>F.I.SH./Ф.И.О.:</b></p> <p>_____</p> <p><b>Pasport seriyasi / Серия паспорта:</b> _____ № _____ <b>Kim tomonidan qachon berilgan / Кем выдан:</b></p> <p><b>Manzil/ Адрес:</b></p> <p>_____</p> <p><b>Tel:</b></p> <p>_____</p>	<p><b>F.I.SH./ Ф.И.О.:</b></p> <p>_____</p> <p><b>Pasport seriyasi yoki shaxs guvohnomasi raqami / Серия паспорта или номер удостоверения личности:</b> _____ № _____</p> <p><b>Kim tomonidan va qachon berilgan / Кем выдан:</b></p> <p><b>Amal qilish muddati / Срок действия:</b></p> <p><b>Manzil / Адрес:</b></p> <p>_____</p> <p><b>JSHSHIR /ЛИНФЛ:</b></p> <p>_____</p> <p><b>Tel:</b></p> <p>_____</p>

### TARAFLARNING IMZOLARI / ПОДПИСИ СТОРОН

UNIVERSITET / УНИВЕРСИТЕТ	TO'LOVCHI / ПЛАТЕЛЬЩИК	TALABA / СТУДЕНТ
<p>_____</p> <p>(F.I.SH./ Ф.И.О)</p> <p><b>Imzo / Подпись</b></p>	<p>_____</p> <p>(F.I.SH./ Ф.И.О)</p> <p><b>Imzo / Подпись</b></p>	<p>_____</p> <p>(F.I.SH./ Ф.И.О)</p> <p><b>Imzo / Подпись</b></p>

2023 yil «01» iyundagi «Номер\_договра» - sonli  
ta'lim xizmatlarini ko'rsatish  
to'g'risidagi shartnomaga  
**ILOVA**

**ПРИЛОЖЕНИЕ**  
к договору о предоставлении  
образовательных услуг  
№ «Номер\_договра» от «01» июня 2023 года

**2023-2024-o'quv yili uchun Talabaga  
ko'rsatiladigan ta'lim xizmati:**

**Предоставляемые образовательных услуг  
на 2023-2024 учебный год студенту:**

Talabaning F.I.SH.	«ФИО»	Ф.И.О. студента	«ФИО»
Ta'lim yo'nalishi	«Факультет_uzb»	Направление обучения	«Факультет_ru»
Ta'lim tili	«Язык_обучение_uzb»	Язык обучения	«Язык_обучение_ru»
Ta'lim shakli	«Форма_обучения_uzb»	Форма обучения	«Форма_обучения_ru»
Ta'lim bosqichi	«Курс_uzb»	Курс обучения	«Курс_ru»
Ta'lim yo'nalishin ing davomiylig i	«Продолжительность_обуче ния_uzb»	Продолжительн ость направления обучения	«Продолжительность_обуче ния_ru»